DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18155267

XULQIDA OG‘ISHI BOR BOLALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ismatova Zulfiya Ibadullo qizi
Guliston Davlat Pedagogika
Instituti Magistranti

ANNOTATSIYA

Hozirgi globallashuv davrda, ta’lim tizimi tubdan o‘zgarib bormoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media vositalarining jadal rivojlanishi ijtimoiy iqtisodiy va madaniy hayotga nihoyatda chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday muhitda o‘sib kelayotgan yosh avlod – ayniqsa, xulqida og‘ishi bor bolalarning tarbiyasi va ularning ma’naviy kamoloti o‘ta ahamiyatli masalaga aylanyapti. Globallashuvdan kelib chiqadigan turli mafkuraviy tahdidlar, chetdan kirib kelayotgan g‘oyalar, oilaviy muammolar, ta’lim muassasalaridagi kelishmovchiliklar natijasida bolalarning xulqida og‘ish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: *xulqida og‘ish ,o‘quvchilar, deviant xulq, pedagogik yondashuv, psixologik omillar, tarbiya ,ijtimoiy muhit, axloqiy tarbiya.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ishlash muammosi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xulq-atvordagi og‘ishlar bolalarning emotsional holati, ijtimoiy muhit va tarbiya sharoitlari bilan chambarchas bog‘liqdir [1], [2]. Bunday bolalarda agressivlik, impulsivlik va muloqotdagi qiyinchiliklar ko‘proq uchrab, ularning ta’lim jarayoniga moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [3].

So‘nggi yillarda xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ishlashda pedagogik va psixologik yondashuvlarning integratsiyasiga asoslangan metodlar samaradorligi tobora ortib bormoqda [4]. Xususan, art-terapiya, o‘yin texnologiyalari va individual yondashuvlar bolalarning emotsional barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda [5]. Shu bois mazkur tadqiqot xulqida og‘ishi bor bolalar bilan olib boriladigan pedagogik-psixologik ishlarning empirik asoslarini o‘rganishga qaratildi.

Ayniqsa, xulqida og‘ishi bor bolalar sonining ortib borayotgani pedagogika va psixologiya fanlari oldiga muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu muammo nafaqat ta’lim jarayoniga, balki jamiyat barqarorligiga ham ta’sir etuvchi dolzarb masala hisoblanadi. Xulqida og‘ish tushunchasining mazmuni Psixologik adabiyotlarda xulqida og‘ish (deviant xulq) deganda jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlar tushuniladi. Bunday bolalar tajovuzkorlik, itoatsizlik, darsga qiziqmaslik, muloqotdan qochish yoki haddan tashqari faollik kabi xususiyatlar bilan ajralib turadi. Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda bolalar va o‘smirlar xulq-atvorida turli xil salbiy holatlar ko‘payib bormoqda. Xususan, maktab yoshidagi bolalar orasida intizomsizlik, tajovuzkorlik, dars qoldirish, yolg‘onchilik, o‘g‘rilik, kattalarga bo‘ysunmaslik kabi xatti-harakatlar kuzatilmoqda. Bunday holatlar bolaning shaxs sifatida to‘liq shakllanishiga, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ishlash masalasi bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki xulqiy og‘ishlar nafaqat bolaning ichki psixologik holati, balki oila, maktab va jamiyatdagi muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois mazkur maqolada ushbu muammo keng va tizimli tarzda yoritiladi.

Empirik tadqiqotlar

Mazkur tadqiqot xulqida og‘ishi bor bolalarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularga nisbatan qo‘llanilgan pedagogik-psixologik yondashuvlarning samaradorligini baholash maqsadida olib borildi.

TADQIQOTNING MAQSADI

Xulqida og‘ishi bor bolalarning emotsional holati, xulq-atvoridagi o‘ziga xosliklar va ijtimoiy moslashuv darajasini empirik jihatdan o‘rganish hamda korreksion-pedagogik ishlar samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti va subyekti

- **Tadqiqot obyekti:** umumta’lim maktablarida ta’lim olayotgan xulqida og‘ishi bor bolalar
- **Tadqiqot subyekti:** ushbu bolalarning xulq-atvori, emotsional holati va ijtimoiy moslashuv darajasi

Tadqiqot ishtirokchilari

Empirik tadqiqotda 7–10 yosh oralig‘idagi jami **30 nafar o‘quvchi** ishtirok etdi. Ulardan:

- 15 nafari — xulqida og‘ishi aniqlangan (tajriba guruhi),
- 15 nafari — xulqi me’yoriy rivojlangan (nazorat guruhi).

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida quyidagi empirik metodlardan foydalanildi:

- kuzatish metodi;
- suhbat va anketa so‘rovnomalari;
- psixologik diagnostika (xulq-atvorni baholash shkalalari);
- pedagogik tajriba-sinov ishlari;
- natijalarni tahlil qilish va taqqoslash metodlari.

Tajriba-sinov jarayoni

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

1. **Diagnostik bosqich** – bolalarning dastlabki xulq-atvori, emotsional holati va ijtimoiy moslashuv darajasi aniqlandi.

2. **Amaliy (korreksion) bosqich** – tajriba guruhida art-terapiya, rolli o‘yinlar, trening mashg‘ulotlari va individual yondashuv asosida mashg‘ulotlar olib borildi.

3. **Nazorat bosqichi** – o‘tkazilgan ishlar samaradorligi qayta diagnostika orqali baholandi.

Empirik natijalar tahlili

Boshlang‘ich diagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi bolalarda agressivlik, impulsivlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar yuqori darajada namoyon bo‘lgan. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkichlar nisbatan past darajada qayd etildi.

Korreksion-pedagogik ishlar yakunida tajriba guruhidagi bolalarda:

- agressiv xatti-harakatlar kamaydi;
- o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari rivojlandi;
- emotsional barqarorlik va muloqotga kirishish darajasi oshdi.

Natijalar tahlili art-terapiya va individual pedagogik yondashuv bolalarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgartirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Empirik tadqiqot xulosasi

Empirik tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, xulqida og‘ishi bor bolalar bilan maqsadli va tizimli pedagogik-psixologik ishlar olib borilganda ularning xulq-atvorida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Bu esa ta’lim jarayonida innovatsion va korreksion metodlardan foydalanish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Empirik tadqiqot umumta’lim maktablari sharoitida olib borildi. Tadqiqotda 7–10 yoshdagi 30 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ulardan 15 nafari xulqida og‘ishi aniqlangan bolalar (tajriba guruhi), 15 nafari esa xulqi me’yoriy rivojlangan bolalar (nazorat guruhi)ni tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, anketa, psixologik diagnostika hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi [6]. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: dastlabki diagnostika, korreksion-amaliy va nazorat bosqichlari. Korreksion bosqichda art-terapiya mashg‘ulotlari, rolli o‘yinlar hamda individual va guruhiy treninglar qo‘llanildi [7].

NATIJALAR

Dastlabki diagnostika natijalari tajriba guruhidagi bolalarda agressiv xatti-harakatlar, impulsivlik va ijtimoiy moslashuv darajasining pastligi yuqori ekanligini

ko‘rsatdi. Korreksion-pedagogik ishlar yakunida o‘tkazilgan qayta diagnostika natijalari tajriba guruhida ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini aniqladi.

Xususan, agressiv xulq ko‘rinishlarining kamayishi, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarining rivojlanishi va muloqotga kirishish faolligining oshishi kuzatildi. Nazorat guruhida esa sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi. Bu natijalar pedagogik-psixologik yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi [8].

MUHOKAMA

Olingan empirik natijalar xulqida og‘ishi bor bolalar bilan tizimli va maqsadli pedagogik-psixologik ishlar olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari art-terapiya va individual yondashuv bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish va ijtimoiy moslashuvini oshirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi [9].

Mazkur tadqiqot natijalari avvalgi ilmiy izlanishlar bilan mos kelib, xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ishlashda innovatsion va korreksion metodlardan foydalanish ilmiy jihatdan asoslanganligini ko‘rsatadi [10].

Xulqida og‘ish tushunchasining ilmiy mohiyati

Ilmiy adabiyotlarda xulqida og‘ish tushunchasi “deviant xulq-atvor” termini bilan ifodalanadi. Deviant xulq — bu shaxsning jamiyatda qabul qilingan axloqiy, huquqiy va ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlaridir.

Psixologlarning fikricha, har qanday xulqiy og‘ish bolaning ichki ehtiyojlari va tashqi muhit o‘rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa deviant xulq noto‘g‘ri tarbiya, ta’lim jarayonidagi kamchiliklar hamda individual yondashuv yetishmasligi bilan bog‘liq.

Xulqida og‘ishlarning asosiy turlari

Xulqida og‘ishlar turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ijtimoiy passiv og‘ishlar

• darslarga qiziqmaslik

• o‘ziga ishonchsizlik

• yolg‘izlikka intilish

2. Ijtimoiy faol og‘ishlar

• tajovuzkorlik

• janjalkashlik

• kattalarga qarshilik ko‘rsatish

3. Antisotsial xulq-atvor

• o‘g‘rilik

• yolg‘onchilik

• bezorilik

4. Addiktiv xulq

• zararli odatlarga moyillik

• internet va o‘yinlarga qaramlik

Xulqida og‘ishlarning psixologik asoslari.

Xulqiy og‘ishlarning shakllanishida psixologik omillar muhim o‘rin tutadi. Jumladan:

-bolada o‘zini past baholash;

-hissiy beqarorlik;

-stress va ichki ziddiyatlar;

-tajovuzkorlik va impulsivlik, depressiya;

-psixologik ehtiyojlarning qondirilmasligi;

-bolalik davridagi psixologik travmalar.

Agar bola o‘zini tushunilgan va qabul qilingan deb his qilmasa, u e’tiborni salbiy xatti-harakatlar orqali jalb etishga urinadi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida mustaqillikka intilish kuchayib, nazoratning haddan tashqari kuchli bo‘lishi xulqiy og‘ishlarni kuchaytiradi.

Ayniqsa, bolaning yosh davrida e’tibor va mehrga bo‘lgan ehtiyoji qondirilmasa, u turli salbiy xatti-harakatlar orqali o‘zini nomoyon etishga urinadi. Z. Freyd, A. Adler va E. Erikson kabi olimlar bolalik davridagi psixologik inqirozlar va ichki konfliktlar xulq buzilishlariga olib kelishini ilmiy asoslab berganlar.

Xulqida og‘ishlarning pedagogik asoslari. Pedagogik nuqtai nazardan, xulqida og‘ishlar ko‘pincha noto‘g‘ri tashkil etilgan tarbiya va ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bo‘ladi. Jumladan:

- individual yondashuvning yetishmasligi;
- faqat jazoga asoslangan tarbiya;
-o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi salbiy munosabat;
- bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olmaslik
-notog‘ri tarbiya usullari;
-maktab muhitining noqulayligi;
-jazoga asoslangan yondashuv.

Pedagog Bolani jazolash emas, balki tushunish , qo‘llab quvvatlash va to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish orqali ijobiy natijaga erishishi mumkin.

Pedagog bolaning xatti-harakatini emas, balki uning sabablarini tahlil qilishi zarur. Ta’lim jarayonida ijobiy rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va tushunishga asoslangan yondashuv samarali hisoblanadi.

Xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ishlashning pedagogik-psixologik usullari

Bunday bolalar bilan ishlash kompleks yondashuvni talab qiladi:

• individual psixologik suhbatlar;
• pedagog va psixolog hamkorligi;
• ota-onalar bilan tushuntirish ishlari;
• ijobiy rag‘batlantirish;
• ijtimoiy moslashuvni rivojlantiruvchi treninglar;
• korreksion mashg‘ulotlar.

Oila va ijtimoiy muhitning ta’siri

Oila bolaning birinchi ijtimoiy muhitidir. Oiladagi nizolar, ota-onaning befarqligi, doimiy janjallar yoki haddan tashqari qattiqqo‘llik bolada salbiy xulq-atvorni shakllantiradi. Ba’zi hollarda esa ota-onaning ortiqcha erkalatishi ham xulqiy muammolarga olib keladi. Shuningdek, ota-onaning pedagogik va psixologik bilimlarga ega emasligi bolani to‘g‘ri yo‘naltirishda qiyinchilik tug‘diradi. Oila

bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Oiladagi nizolar, ota-onaning befarqligi yoki haddan tashqari qattiqqo‘lligi bolada salbiy xulq-atvorni shakllantirishi mumkin. Shuningdek, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ham bolaning xulqiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Maktab va ijtimoiy muhitning roli

Maktab — bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi muhim muhitdir. Agar maktabda sog‘lom psixologik muhit yaratilmasa, tengdoshlar o‘rtasida kamsitish, masxara qilish holatlari mavjud bo‘lsa, bola xulqida og‘ishlar yuzaga kelishi mumkin.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, virtual o‘yinlar ham bolaning xulq-atvoriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Xulqiy og‘ishlarning oldini olish uchun:

• maktablarda psixologik xizmatni kuchaytirish;

• ota-onalar uchun trening va seminarlar tashkil etish;

• bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish;

• sog‘lom muhit yaratish muhim ahamiyatga ega

Xulqida og‘ishi bor bolalar bilan ishlash yo‘llari

Bunday bolalar bilan ishlashda quyidagi chora-tadbirlar samarali hisoblanadi:

• individual psixologik maslahatlar;

• pedagog va psixolog hamkorligi;

• ota-onalar bilan muntazam ishlash;

• ijobiy rag‘batlantirish usullaridan foydalanish;

• ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar;

• ijobiy motivatsiyani shakllantirish;

• art-terapiya, o‘yin terapiyasi kabi innovatsion metodlardan foydalanish;

• oila va maktab hamkorligini mustahkamlash;

A.S. Makarenko va V.A. Sukhomlinskiy pedagogik ta’sirning insonparvarlik, ishonch va hamkorlikka asoslanishi xulqni ijobiy tomonga o‘zgartirishda samarali ekanini ta’kidlaganlar. Bu yondashuvlar bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga, o‘z xulqini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

XULOSA

Xulqida og‘ishi bor bolalar muammosi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uni hal etishda pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg‘unligi oila, maktab va jamiyatning hamkorligi orqali bolalarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish mumkin. Har bir bola individual yondashuv va e’tiborga muhtoj ekanini unutmaslik lozim. Ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhit yaratish, individual yondashuvni ta’minlash va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali xulqiy og‘ishlarning oldini olish mumkin. Xulqida og‘ishi bor bolalar muammosi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, uni faqat jazolash orqali hal qilib bo‘lmaydi. Pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg‘unligi, oila, maktab va jamiyatning hamkorligi orqali bolalarda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish mumkin. Har bir bola individual yondashuv va mehr-e’tiborga muhtoj ekanini unutmaslik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Karimova V.M. **Pedagogik psixologiya asoslari.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. G‘oziev E.G‘. **Shaxs psixologiyasi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Davletshin M.G‘. **Yosh va pedagogik psixologiya.** – Toshkent: Fan, 2018.
4. Abdurahmonova Z.X. **Xulqi og‘ishgan bolalar bilan ishlash metodikasi.** – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
5. Kiseleva M.V. **Art-terapiya v rabote s detmi.** – Moskva: Rech, 2017.
6. Nemov R.S. **Psixologiya: Uchebnik dlya pedagogicheskix vuzov.** – Moskva: Vlados, 2020.
7. Ismoilova N.Sh. **Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xulq-atvor muammolarini korreksiya qilish.** – Toshkent: TDPU, 2022.
8. Slastenin V.A., Isaev I.F. **Pedagogika.** – Moskva: Akademiya, 2019.
9. Zinkevich-Yevstigneeva T.D. **Razvivayushchaya art-terapiya.** – Sankt-Peterburg: Rech, 2018.
10. UNICEF. **Inclusive education and children with behavioral difficulties.** – New York, 2021.